



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

ADVOKATURA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH DAVR TALABIDIR

Sattorova Muxarram Abdurazzakovna

Toshkent shahar yuridik texnikumi

Jinoiy huquqiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada jamiyat taraqqiyotining hozirgi nuqtasida advokatura institutini rivojlantirishning zarurati va dolzarbligi, rivojlangan davlatlarda advokatura faoliyatini tashkil qilishning ijobiy tajribalari shuningdek, soha faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng tatbiq etish borasida ko'rilayotgan chora tadbirlar hamda ushbu institut faoliyatidagi muammo va yechimlari ochib beradi.*

***Kalit so'zlar:** advokatura, kommunikatsiya texnologiyalari, jamiyat, muammo va yechimlar, istiqbollari, advokatura byurosi, barrister, solisitor.*

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXIV bob 141-moddasiga asosan jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi. Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o'z-o'zini boshqarish printsiplariga asoslanadi.

Bugungi kun rivojlanayotgan dunyo hamjamiyatida advokatura asosiy va tayanch institutlaridan biri bo'lib, uning zimmasiga yuridik va jismoniy shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish bilan bog'liq konstitutsiyaviy vazifa yuklatilgan. Shu bois ham mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab sud-huquq tizimining ajralmas bo'g'ini, ya'ni advokatura institutini isloh qilish, uni inson, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlab faoliyat yurituvchi sohaga aylantirish, mustaqil tizimni barpo etishga alohida va doimiy ahamiyat berib kelindi. Buni muhtaram Prezidentimizning quyidagi so'zlaridan ham anglasak bo'ladi: "Odil sudlov, inson qadr-qimmatini va huquqlari oliy qadriyat sifatida sud-huquq sohasidagi islohotlarimizning asosiy mazmuni bo'ladi" Yurtimiz siyosiy hayotida ro'y berayotgan muhim o'zgarishlar, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-madaniy, sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan yangilanishlar advokatura tizimini ham zamon bilan hamnafas rivojlantirish, qonunchilik huquqiy bazasini takomillashtirib borishni talab etmoqda.

Bundan tashqari dunyo miqyosida ro'y berayotgan modernizatsiyalashuv jarayoni mamlakatimiz aholisini ham qamrab olayotganligi, oxirgi 4-5 yil davomida jadal olib borilayotgan demokratik islohotlar tufayli fuqarolar ongining o'sib borishi va huquqiy madaniyatining yuksalishi oqibatida ular tomonidan siyosiy-huquqiy faollikning kuchayib borishi hamda o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun sud organlariga murojaat qilish va advokat yordamidan foydalanishga bo'lgan



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

ehtiyojning o'sib borishi singari holatlar advokaturani zamon talablariga javob beradigan asosda rivojlantirish masalasini keltirib chiqarmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan to shu kungacha jamiyat hayotining barcha jabhalarida bo'lgani kabi sud-huquq tizimining ajralmas qismi bo'lgan advokatura tizimi ham to'xtovsiz ravishda rivojlanib bordi. O'zbekistonda advokatura institutining o'zni va funksiyasini chuqurroq tushunish uchun xorijiy mamlakatlarda advokatura institutini tashkil etishning ilg'or tajribasiga murojaat qilishimiz kerak. Xorijiy mamlakatlarda advokatura instituti faoliyatining huquqiy asoslari va amaliyotini tahlil qilish mamlakatimizda advokatura instituti faoliyatining muammoli tomonlari va ularni hal etishning mumkin bo'lgan yo'llarini aniqlash imkonini beradi. So'nggi yillarda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga o'tish, barcha sohalarga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish ishlari jadal rivojlanmoqda. Buning natijasida aholiga xizmat ko'rsatish sifati yanada kuchaymoqda va bir qator sohalar vakillari faoliyatining samaradorligi oshmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining saylovoldi dasturida keltirib o'tgan quyidagi fikrlari ham buning yorqin isboti: "Mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi yangi bosqichida ixcham, professional, xalqimiz talablariga javob beradigan, adolatli, yuqori natijadorlikka yo'naltirilgan davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish muhim vazifamiz bo'ladi".

Ta'kidlash joizki, raqamlashtirish jarayoni advokatura sohasini ham chetlab o'tayotgani yo'q. Jumladan, 2022-yil 30-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan 2023-yil 1-yanvardan boshlab advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun litsenziya berish, talabgor tomonidan malaka imtihonini topshirishining amaldagi tartibi saqlangan holda, "Litsenziya" axborot tizimi orqali amalga oshirilishi va rasmiylashtirib borilishi, advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish va tugatish O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali "yagona darcha" tamoyili asosida faqat elektron tarzda amalga oshirilishi, advokatlik faoliyatini boshlashda malaka imtihonini topshirish, advokatlik faoliyati uchun litsenziya olish va advokatlik byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha kompozit xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratilishi belgilandi.

Qaror bilan Adliya vazirligining 2023-yil 1-yanvardan fuqarolarga yuridik yordam ko'rsatish jarayonlarini raqamlashtirish, advokatura sohasini sudlar va



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat organlari faoliyati bilan integratsiya qilishni nazarda tutuvchi “Yuridik yordam” axborot tizimini ishga tushirish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berildi.

“Yuridik yordam” axborot tizimi doirasida advokatlar elektron reyestri va advokatlarning shaxsiy elektron kabinetini shakllantirish, advokatning shaxsiy elektron kabineti orqali jismoniy va yuridik shaxslar bilan onlayn muloqot qilish, elektron raqamli imzodan foydalangan holda ishonch bildiruvchi shaxs xohishiga asosan masofadan turib yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida onlayn bitimlar (shartnomalar) tuzish va onlayn yuridik yordam ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, advokatura, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari o‘rtasida elektron hujjatlar almashinuvi yo‘lga qo‘yiladi (bundan qonun bilan muhofaza qilinadigan sirni tashkil etuvchi axborotlar mustasno).

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov harakatlari yoki sud majlisi o‘tkazilish vaqti va joyi to‘g‘risida advokatga elektron xabar berish imkoniyati yaratiladi. Advokat so‘rovini elektron yuborish va advokat so‘rovi asosida yuridik yordam ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni elektron shaklda taqdim etish amaliyoti yo‘lga qo‘yilib, advokatning o‘z arizasiga ko‘ra advokatlik maqomini to‘xtatib turish elektron tarzda advokat tomonidan xabarnoma berish shaklida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “Adolat” Milliy Huquqiy Axborot Markazi “Toshkent” 2023-yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 06.11.2021 yil. www.yuz.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Inson qadri uchun” saylovoldi dasturi. 27.09.2021-yil. www.gazeta.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 30.05.2022-yil.
5. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. April 2022.